

6-22-2018

## THE HISTORY OF STUDY AND THE CLASSIFICATION OF EUPHEMISMS

Shakhnoza Kakhramonovna Gulyamova

*Teacher at Uzbek linguistics department, Bukhara state university*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu>

---

### Recommended Citation

Gulyamova, Shakhnoza Kakhramonovna (2018) "THE HISTORY OF STUDY AND THE CLASSIFICATION OF EUPHEMISMS," *Scientific reports of Bukhara State University*: Vol. 1 : Iss. 3 , Article 5.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol1/iss3/5>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific reports of Bukhara State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [brownman91@mail.ru](mailto:brownman91@mail.ru).

UDK 81'1, 93/94, 001,31

**EVFEMIZMNING O'RGANILISH TARIXI VA TASNIFI**  
**ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ ЭВФЕМИЗМОВ**  
**THE HISTORY OF STUDY AND THE CLASSIFICATION OF EUPHEMISMS**

Gulyamova Shakhnoza Kakhramonovna

*Teacher at Uzbek linguistics department, Bukhara state university*

**Tayanch so'zlar:** til, evfemizm, disfemizm, tabu, tarixiy evfemizm, okkazonal evfemizm, sinfiy va kasbiy evfemizmlar, maishiy-turmush evfemizmlari, evfemizm-tabuizmlar, fakultativ evfemizmlar, deevfemizmlar.

**Ключевые слова:** эвфемизм, дисфемизм, табу, исторический эвфемизм, окказиональный эвфемизм, классические и профессиональные эвфемизмы, бытовые эвфемизмы, эвфемизмы-табуизмы, факультативные эвфемизмы, деэвфемизмы.

**Key words:** euphemism, dysphemism, taboo, historical euphemism, occasional euphemism, class and professional euphemisms, household euphemisms, euphemism-tabooisms, facultative euphemisms, de euphemisms.

**Аннотация**

*Maqolada evfemizmlarning dunyo va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi hamda uning tasnifi masalalari yoritilgan.*

**Аннотация**

*Статья посвящена изучению эвфемизмов, а также рассмотрению классификации эвфемизмов в узбекском языкознании.*

**Abstract**

*The article reveals the study and classification of euphemisms in the world and in Uzbek linguistics.*

**Kirish.** Til – davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Hozirgi kunga qadar o'zbek tilshunosligi barcha yo'nalishlarda ancha yutuqlarga erishdi. Jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tilshunosligimiz oldida yanada yangi vazifalarni qo'yimoqda.

Keyingi yillarda tillararo va madaniyatlararo munosabatlar kuchayganligi sababli tilshunoslar va sotsial psixologlarning e'tibori turli xalqlarning muomala madaniyatini, unda ishlatiladigan ishoralar, milliy holatlarni, urf-odat va adab normalarini o'rganishga qaratilmoqda. Chunki milliy, madaniy o'ziga xoslik o'sha xalqning xulqida, madaniyatida, so'zlashuv jarayonida o'z aksini topadi.

Har bir shaxs nutq jarayoniga o'z xalqi muomala madaniyatiga xos xususiyatlardan foydalangan holda aloqaga kiradi. Har qanday shaxs ma'lum muhitda shakllanar ekan, shu muhitda kishilar bilan aloqa-aralashuvda bo'ladi. Tilning sotsial mohiyatini xarakterlaganda til va xalq madaniyati, til va jamiyat masalalarini dialektik birlikda olib qarash maqsadga muvofiqdir. Har qanday jamiyatda madaniyatning rivojlanish jarayoni unga xizmat qilayotgan til bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, shu bilan birga, til ham jamiyat rivojiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Til insoniyat tarixida insonning hayvonot olamidani ajralib chiqishiga, iqtisodiy takomil topishiga, siyosiy tashkilotlarga birlashishiga, o'zlarining tafakkurlarini o'stirishga, tabiat kuchlariga qarshi kurashib, hozirgi zamon taraqqiyot darajasiga erishishga olib keldi.

O'zbek madaniyatida suhbatdoshning ko'ngliga tegmaydigan, silliq, "qog'ozga o'rab" gapirish an'ana hisoblanadi. Chunki Sharq madaniyatida mulozamat bilan so'zlash lutf belgisidir.

*Evfemizm* (yunoncha euphemia – yumshoq ifodalash) – so'zlovchiga aytish noqulay, no'rin yoki qo'pol tuyulgan so'z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo'lgan so'zlar.

## SOCIAL AND BEHAVIORAL SCIENCES: LINGUISTICS

Evfemizm salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta'sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsiga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me'yorlarga zid keladigan holatlarning yoki to'g'ridan-to'g'ri aytish mumkin bo'lmagan maxfiy voqelikning salbiy ta'sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish; noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan: *o'ldi* deyish o'rniga *olamdan o'tdi*, *vafot etdi*, *ko'z yumdi*; *tug'di* deyish o'rniga *ko'zi yoridi*, *yengillashdi* kabi iboralardan foydalanish[10].

**Asosiy qism.** Evfemizm, uning tasnifi va nutqda voqelanish masalalari rus va yevropa tilshunosligida keng tadqiq qilingan.

20-21-asrlarda evfemistik leksika muammosi va uning boshqa til hodisalari bilan aloqasiga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan[1,2,3,4,5,6,8,9,10,11,12,13,14].

B.A.Larin: "Evfemizmlar muvaqqat. Uning ishlatilishi uchun nutqiy vaziyat kerak, ya'ni dag'al so'zlar ekvivalenti mavjud bo'lishi kerak. Ishlatilishi noqulay bo'lgan so'zlar iste'moldan chiqishi bilan evfemizmlar ham o'z qiymatini yo'qotib, oddiy leksema sifatida voqelanadi"[5], - deb ta'kidlab o'tgan.

A.S.Kurkiyev evfemizmlarni 5 ta guruhga ajratadi:

- 1) bid'at asosida paydo bo'lgan evfemizmlar;
- 2) qo'rquv va norozilik his-tuyg'ulari oqibatida paydo bo'lgan evfemizmlar;
- 3) hamdardlik va rahmdillik asosida paydo bo'lgan evfemizmlar;
- 4) uyatchanlik asosida paydo bo'lgan evfemizmlar;
- 5) xushmuomalalik (muloyimlik) asosida paydo bo'lgan evfemizmlar[3].

B.A.Larin esa evfemizmlarni 3 turga ajratadi:

- 1) milliy-adabiy tilning umumiste'moldagi evfemizmlari;
- 2) sinfiy va kasbiy evfemizmlar;
- 3) maishiy-turmush evfemizmlari[5].

L.B.Moskvin evfemizmlarning 6 vazifasini belgilab bergan:

- 1) qo'rqitadigan obyektlar nomini yumshatish;
- 2) yoqimsiz va jirkanuvchi obyektlar nomini yumshatish;
- 3) aytilishi noqulay bo'lgan so'zlarning ma'nosini yumshatish;
- 4) atrofda predmetlarning nomlanishini etiket doirasida qo'llanilishini ta'minlash;
- 5) qo'pol so'zning asl mohiyatini yumshatish;
- 6) nufuzsiz tashkilot va kasblarning nomini yumshatish[6].

Y.P.Senichkin esa evfemizmlarni quyidagi turlarga ajratadi:

- 1) evfemizm-tabuizmlar;
- 2) fakultativ evfemizmlar;
- 3) deevfemizmlar;
- 4) tarixiy evfemizmlar;

5) tilga oid va okkazional evfemizmlar. Olim evfemizmlarni tasniflash uchun ularga morfologik nuqtayi nazardan qarash kerakligini aytib o'tgan[12].

19-20-asrlar badiiy matnlaridagi tibbiyot sohasiga oid evfemizmlar tavsifi Y.N.Maligina tomonidan o'rganilgan[8]. Shifokorlar nutqida tibbiyot evfemizmlarning vujudga kelishi va yasalish usullari, tarkibining o'zgarish xususiyatlari diaxronik tahlil qilingan.

Hozirgi kunda rus tilida fiziologik jarayon va holatni ifodalaydigan evfemizmlarning ishlatilishi kamayganligi sababli zamonaviy rus tilining dag'allashganligini ko'rsatadi. Bu tendensiya ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Jumladan, L.P.Krisin ishida o'z aksini topgan[2].

L.P.Krisin, o'z navbatida, evfemizatsiyaning shaxsiy va ijtimoiy hayotda voqealanishini ta'kidlab o'tgan.

J.Vandriyes: "Evfemizm – bu man etilgan lug'atning muloyimroq va madaniyroq formasigina, xolos", - deydi.

L.A.Bulaxovskiy: "Evfemizmlar yomon fikr uyg'otadigan narsa yoki hodisaning asl nomini almashtirish va ular haqida so'z orqali yovuz kuchlarni chaqirish "xavfi"ni tug'dirmay turib gapirish, hammadan oldin "xavfning oldini olish" formulasidir", - deb yozadi.

## SOCIAL AND BEHAVIORAL SCIENCES: LINGUISTICS

N.A.Samoylovich oltoy ayollari aytishi mumkin bo'lmagan 42 ta so'zning lug'atini beradi. Masalan, qozoq, qirg'iz ayollari erlari va ularning aka-ukalari otlariga qo'shib aytiladigan *bo'ri, qo'y, qo'zi, daryo, qamish* so'zlarini aytmaslik natijasi o'laroq, ular nutqidan quyidagi gaplarni yozib olgan: *O'quvchi (daryo)ning narigi tomonida ko'karadigan (qamish)ning tagida uvlovchi (bo'ri) ma'rovchi (qo'y)ning bolasi (qo'zi)ni yeb yotibdi.*

E.A. Agayan arman qishloqlarida *ilon* so'zi o'rnida *arqon, kanat* so'zlari ishlatilganligini yozadi.

A.A. Reformatskiy tabu va evfemizm hodisasini kengroq tushungan va:

1) harbiy diplomatiya talabi bilan mamlakat, shahar, korxonalar, harbiy qism va ayrim atoqli shaxs nomlarini biror shartli belgi bilan almashtirilishini *n* (en), *nn* (en-en), *x, y, z* (iks, igrek, zet);

2) odob nuqtai nazaridan, xavfli kasallik nomlarini oshkor aytmaslik uchun lotincha terminlar, qisqartma belgilar bilan atalishini (*rakni conser, operatsiyani jarrohlik kasali* deyish va b.);

3) o'g'rilar nutqidagi yashirin qo'llanadigan so'z va iboralarni ham (o'ldirmoqni *tikib qo'ymoq*, o'g'irlamoqni *sotib olmoq* deyish kabi) evfemizm hisoblaydi[9].

Biz tabu va evfemizm hodisalarini A.A. Reformatskiy tushunganday kengroq doirada qo'llashni yoqlaymiz.

Shunday qilib, rus tilshunosligida evfemizmlarning mavzu doirasini quyidagicha guruhlaymiz:

1. Ayrim fiziologik jarayon va holatlarni ifodalovchi (*farzand kutmoq – homilador*);

2. Inson tana a'zolarining ma'lum qismlarini ifodalovchi;

3. Jinsiy munosabatni anglatuvchi;

4. Kasallik va o'limni bildiruvchi (*fransuzcha o'lim – so'zak (gonoreya), o'zini yomon his qilmoq – kasal*);

5. Diplomatik leksikani ifodalovchi.

L.P.Krisin to'g'ri ta'kidlaganidek, diplomat va siyosatchilar kommunikativ aloqalar -kinoya, to'g'ridan-to'g'ri nomlab bo'lmaydigan so'zlarni etiket doirasida qo'llash ehtiyoji asosida evfemizmlar dunyoga kelgan.

6. Ayrim kasb-korlarni ifodalovchi. Ayrim kasblarning nufuzini oshirish maqsadida ishlatiladi. Masalan, *sut sog'uvchi – sut sog'ish mashinasi operatori, axlatkash – tozalash ishlari operatori*

7. Armiya faoliyati va ular bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni ifodalovchi (*yo'q qilish – o'ldirish*).

O'zbek tilshunosligida esa evfemizmlar N.Ismatullayevning[1] nomzodlik dissertatsiyasida masalaning qo'yilishi darajasida, A.Omonturdiyevning nomzodlik[9] dissertatsiyasida ularning uslubiy xususiyatlari, doktorlik[10] dissertatsiyasida chorvador nutqida qo'llanuvchi evfemizmlarning lingvistik o'ziga xosliklari maxsus tadqiq qilingan.

Olim Ne'mat Ismatullayev 1964-yilda "Hozirgi o'zbek adabiy tilida evfemizmlar" mavzuida nomzodlik ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilgan. Bu ilmiy tadqiqotda tabu va evfemizmga doir boy ma'lumotlar to'plagan, muallif o'zining fikr-mulohazalarini bildirgan, ilmiy hamda amaliy xulosalarga kelgan tomonidan batafsil o'rganilgan.

N.Ismatullayev o'zbek tilidagi evfemizmlarni mavzuviy jihatdan guruhlaydi. Masalan:

1) zaharli hasharotlar nomi o'rnida qo'llanadigan evfemizmlar;

2) yirtqich hayvonlar nomi o'rnida qo'llanadigan evfemizmlar;

3) xotin-qizlar tilida ishlatiladigan evfemizmlar va b.

Qolaversa, olim har bir sotsial qatlam nutqida qo'llanadigan evfemizmlarning muomaladagi ahamiyatini, lug'at tarkibini boyitishdagi qimmatini tahlil qilib bergan.

Bu ish shu soha bilan bog'liq masalalarni, jumladan, evfemizmni keyingi bosqichda o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Olim A.Omonturdiyev tomonidan ham N.Ismatullayevning tabu va evfemizm haqidagi qarashlari davom ettirilib, evfemizmni "uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida

## SOCIAL AND BEHAVIORAL SCIENCES: LINGUISTICS

allaqachon o'z yechimini topishi kerak bo'lgan mavzu" sifatida keng doirada o'rganib, o'zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi. U 1997-yilda "Evfemik vositalarning funksional-uslubiy xususiyatlari" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasi yoqlangan, mavzu keng rejada ishlanib, "O'zbek nutqining evfemik asoslari", "Professional nutq evfemikasi" nomli monografiyalar e'lon qilingan va "Bir so'z lug'ati", "So'z qo'llash san'ati", "O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati" kabi ishlar nashr qilingan.

Bungacha esa 1983-yilda nashr etilgan "O'zbek tili stilistikasi" o'quv qo'llanmasida mualliflar jamoasi tomonidan evfemizm hamda kokofemizm (disfemizm) xususida ayrim umumiy ma'lumotlar berilgan edi.

Keyingi yillarda chop etilayotgan lingvistik adabiyotlarda evfemizmning antonimi sifatida disfemizm (dysphemism), kakofemizm (cacophemism) va kuchli so'zlar (power word) deb berilmoqda[15].

Ulardan birinchi va ikkinchisi haqoratimiz va ozroq yumoristik bo'lib, ulardan biron narsa maqsad qilinganda oldindan rejalashtirilgan haqoratli so'zlar sifatida foydalaniladi. Oxirgisi esa, asosan, bahs-munozara, tortishuvlarda qo'llaniladi.

Tilshunos M.Mirtojievning "O'zbek tili semasiologiyasi" monografiyasida evfemizmlarga maxsus o'rin ajratilgan. Olim monografiyasida tabu va evfemizm hodisalarining munosabati, ularning o'rganilish tarixi masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Olim evfemik ma'noning hosila ma'no ekanligini, bu hosila ma'nolar metaforik, metonimik usullarda vujudga kelishini, sinekdoxik va vazifadoshlik asosida evfemik ma'no paydo bo'lmasligini ta'kidlaydi.

Aytib o'tish kerakki, evfemizm xususida tilshunos olimlar tomonidan yo'l-yo'lakay ham fikrlar bildirilib, unga turli tomondan yondashilgan. Masalan, H.Shamsiddinov so'zlarning evfemik funksional-semantik sinonimlari haqida fikr-mulohazalarini bildirsa, A.E.Mamatov doktorlik ishida[7] frazeologizmlarning evfemik va disfemik shakllanishiga alohida to'xtaladi. Shuningdek, ayrim badiiy til bilan bog'liq ishlarda ham til birliklarining evfemik ma'nosiga e'tibor qaratiladi. Jumladan, "Boburnoma" leksikasini maxsus tadqiq qilgan olim Z.Xolmanova[13] unda qo'llangan evfemizmlar xususida ayrim fikrlarni bayon etgan.

X.Qodirovaning "Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmlardan foydalanish mahorati" nomzodlik dissertatsiyasida[11] esa adib asarlaridagi evfemik va disfemik birliklar tasniflanib, uslubiy xususiyatlari bayon etilgan. Muallif yozuvchining evfemik va disfemik birliklardan foydalanish mahoratini yoritib, Abdulla Qodiriy asarlarining evfemik va disfemik ma'noli birliklar lug'atini tuzdi.

A.Hojiyevning 2002-yilda qayta nashr qilingan "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" da evfemizmgacha quyidagicha izoh beriladi:

**Evfemizm** (yunoncha "euphemismos", eu – yaxshi + phemi – gapiraman) narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol botmaydigan so'z (ibora)ni qo'llash. Masalan, *ikkifat*, *bo'g'oz* so'zlari o'rnida *homilador*, *og'ir oyoqli* so'zlarini qo'llash.

Xullas, umumtilshunoslikda tabu va evfemizm haqidagi fikrlarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin. Bular: 1) evfemizmlar ibtidoiy dunyoqarash (tabu) ta'sirida paydo bo'lib, jamiyatning madaniy bosqichida yo'q bo'lib boradi; 2) evfemizmlar til materiali, passiv leksik qatlam sifatida mavjud; 3) evfemizmlar ayni zamonda, nutqiy vosita, uslub uchun ham xizmat qiladi.

Bu ishlarda evfemizmning ma'no-mezoni, ko'lami, tasviriy ifoda obyekti, semantik-funksional tasnifi, yondosh hodisalarga, til sathiga munosabati, evolutsiyasiga doir fikrlar bayon etilgan. Biroq, bunda biz nutqshunoslik muammolari, uning evfemikasi nazariy va amaliy jihatdan yechim topgan degan fikrdan yiroqmiz.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, tabu va evfemizm ibtidoiy din, ongi ojiz odamlarning g'ayritabiiy dunyoqarashi, xurofot, bid'at, rasm-rusumlar ta'sirida paydo bo'lgan eskilik qoldiqlari, bular jamiyatning keyingi taraqqiyotida madaniylashgan bosqichlarida yo'q bo'lib boradi, degan qarashlar [4] o'zini oqlamaydi.

## SOCIAL AND BEHAVIORAL SCIENCES: LINGUISTICS

Bundan tashqari, hali tabu va evfemizmning paydo bo'lishiga sabab, zaruriyat va qonuniyatlar, ularning evolutsion taraqqiyoti, tabulash asoslari; evfemizmning o'rganish obyekti, mezon va me'ori, ko'lami, chegarasi, til tizimiga munosabati; evfemizmning shakllanishida – evfemik ma'no ko'chishda metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlikning roli; evfemik ma'noning: a) omonimiya, polisemiya, sinonimiyaga munosabati; b) nutqning badiiy vositalari (frazeologiya, maqol, matal, aforizm, epitet, allegoriya kabi), ya'ni leksik – sintaktik figuralar, ekspressiv – emotsional ifodalarga munosabati, qisqasi, uslubiy – funksional xususiyatlari, tasnifi va tasniflash asoslari, o'rganish metodlari keng ilmiy – nazariy asosda hali tadqiqotlab.

**Xulosa.** Demak, evfemizmlar rus tilshunosligida keng tadqiq qilingan. O'zbek tilshunosligida ham bu mavzu doirasida ba'zi masalalar hal etilgan. Evfemizmlarning o'rganilishi va uning tasnifi bo'yicha bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlarini ko'rib o'tdik.

Tilning antroposentrik g'oyasi zamonaviy tilshunoslikning asosini tashkil qiladi. Zero, u til tizimlarining turli tavsifini shunchaki aniqlash bilan hisoblasha olmaydi, balki bunda inson omili masalasiga o'z diqqatini qaratmoqda. Ayrim manbalarda evfemik vositalar tor doirada, til fakti – lisoniy hodisa, passiv leksik birlik deb qaralgan [14]. Holbuki, evfemik hodisa tilning muayyan bir sathida faqat til birligi sifatidagina emas, nutqiy qatlam, ya'ni semantik – funksional metodga asoslangan badiiy tasviriy vositalar: trop yoki uslubiy figuralar sifatida ham tahlil qilinishi kerak.

## REFERENCES

1. Ismatullaev N. Evfemizmi v sovremennom uzbekskom yazike: Avtoref....kand.filol.nauk. - T., 1963. - 19 s.
2. Krisin L.P. Evfemizmi v sovremennoy russkoy rechi [Elektronniy resurs]. - Rejim dostupa: <<http://www.philology.ru/linguistiss2/krysin-94.html>>
3. Kurkiev A.S. O klassifikatsii evfemisticheskix nazvaniy v russkom yazike. Klassifikatsiya evfemizmov po porojdayushim motivam. - Grozniy, 1977. - S. 105-115.
4. Katsev A.M. Evfemizmi v sovremennom angliyskom yazike: Avtoref. ... dokt. filol. nauk. - L., 1977. - 24 s.
5. Larin B.A. Ob evfemizmax /Larin B.A. Problemi yazikoznaniya : Sb. statey, posvyash. 75-letiyu akad. I.I.Meshaninova. - L.: LGU, 1961. - S. 110-124.
6. Moskvina V.P. Evfemizmi v leksicheskoy sisteme sovremennogo russkogo yazika. - 2-e izd. - M.: Lenard, 2007. - 264 s.
7. Mamatov A.E. "O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari fil.fan.nomzodi Avtoref.. - Toshkent, 1999. - 21 b.
8. Maligina Ye.N. Xarakteristika evfemizmov meditsinskoy rechi v xudojestvennix tekstax russkoy literaturi XIX-XXI vv.// Vestnik SamGU. - 2006. - №10/2 (50). - S. 35-41.
9. Omonturdiyev A.J. Evfemik vositalarning funksional xususiyatlari: Filol. fanlari. nomzodi... diss. - T., 1997. - 176 b.
10. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi (Chorvadorlar nutqi misolida): Filol. Fanlari d-ri. ...dis. - T., 2009. - 252 b.
11. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmdan foydalanish mahorati. Avtoref. Fil.fan.nomzodi....diss. - Toshkent, 2012. - 23 b.
12. Senichkina Ye.P. Evfemizmi russkogo yazika : Uchebnoe posobie. - M.: Visshaya shkola, 2006. - 151 s.
13. Xolmanova Z.T. "Boburnoma" leksikasi tadqiqi: Filol. fanlari d-ri... diss. avtoref. - Toshkent, 2009. - 22 b.
14. Yergaziyeva N.I. Vzaimosvyaz prozvizh, tabu i evfemizmov v kazaxskom yazike // Onomastika Uzbekistana. - Tashkent, 1989. - S. 63-74.
15. Holder R.W. How Not to Say What You Mean: A Dictionary of Euphemisms. - Oxford University Press, 2003. - 113 p.